

## “AJOIB AL-MAQDUR FI TARIXI TAYMUR” MANBASINING TARIXIY AHAMIYATI

**Begimqulova Laylo Mashrabovna**  
*Farg'ona Davlat Universiteti Tarix fakulteti  
 O'zbekiston tarix kafedrasi dotsenti*  
**Ma'murova Sarviniso Kamoliddinovna**  
*Farg'ona Davlat Universiteti Tarix fakulteti  
 Tarix yo'nalishi 23- 71 guruh talabasi*

### ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИСТОЧНИКА «АДЖАЙБ АЛЬ-МАКДУР ФИ ИСТОРИЯ ТАЙМУРА»

**Бегимкулова Лайло Машрабовна**  
*Исторический факультет Ферганского  
 государственного университета  
 Доцент кафедры истории Узбекистана*  
**Мамурова Сарвинисо Камолиддиновна**  
*Исторический факультет Ферганского  
 государственного университета*

*История специальность студент 23-71 группы*

### HISTORICAL SIGNIFICANCE OF THE SOURCE "AJAIB AL-MAQDUR FI HISTORY OF TAYMUR"

**Begimqulova Laylo Mashrabovna**  
*Faculty of History, Fergana State University  
 Associate Professor, Department of History of Uzbekistan*  
**Mamurova Sarviniso Kamoliddinovna**  
*Faculty of History, Fergana State University  
 Student of History, Group 23-71*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Ibn Arabshohning "Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur" asarining tarixiy manba sifatidagi o'rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Asarda XIV-XV asrlar davomida Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqalarida yuz bergan muhim voqealar, xususan Amir Temuring shaxsiyati, uning harbiy yurishlari va siyosiy faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Muallif, o'z davrining bevosita guvohi sifatida, voqealarni o'ziga xos tarixiy yondashuv bilan yoritgan. Mazkur maqolada asarning tarixiy ishonchiligi, muallifning qarashlari va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinib, uning Temuriylar davri tarixini o'rganishdagi o'rni va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ushbu asarning boshqa tarixiy manbalar bilan taqqosiy tahlili orqali uning tarixiy jarayonlarni aks ettirishdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Ibn Arabshoh, V.V.Bartold, A.Yu.Yakubovskiy, I.P.Petrushevskiy, M. Ivanin, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Damashq, Samarqand.

**Аннотация:** Статья посвящена анализу роли и значения сочинения Ибн Арабшаха «Аджаиб альмакдур фи тарихи Теймур» как исторического источника. В труде даны ценные сведения о важных событиях, происходивших в Средней Азии и на Ближнем Востоке в XIV-XV вв., в частности, о личности Амира Темура, его военных походах и политической деятельности. Автор, как



e-mail:  
[begimqulova@internet.ru](mailto:begimqulova@internet.ru)



[sarvinisomamurova@gmail.com](mailto:sarvinisomamurova@gmail.com)

непосредственный свидетель своего времени, освещал события с уникальным историческим подходом. В статье анализируются историческая достоверность произведения, взгляды автора, методологические особенности, а также освещаются его роль и значение в изучении истории эпохи Тимуридов. Также посредством сравнительного анализа данного произведения с другими историческими источниками демонстрируется его важность в отражении исторических процессов.

**Ключевые слова:** Амир Темур, Ибн Арабшах, В.В. Бартольд, А.Ю.Якубовский, И.П.Петрушевский, М. Иванин, Низомиддин Шами, Шарафиддин Али Язди, Дамаск, Самарканد.

**Annotation:** This article is devoted to the analysis of the role and significance of Ibn Arabshah's work "Ajoyib al-maqdur fi tarikhi Taimur" as a historical source. The work provides valuable information about the important events that took place in the regions of Central Asia and the Middle East during the 14th-15th centuries, in particular, about the personality of Amir Temur, his military campaigns and political activities. The author, as a direct witness of his time, covered the events with a unique historical approach. This article analyzes the historical reliability of the work, the author's views and methodological features, and highlights its role and significance in the study of the history of the Timurid era. Also, through a comparative analysis of this work with other historical sources, its significance in reflecting historical processes is shown.

**Key words:** Amir Temur, Ibn Arabshah, V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovsky, I.P. Petrushevsky, M. Ivanin, Nizomiddin Shami, Sharafiddin Ali Yazdi, Damascus, Samarkand.

**KIRISH.** Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqalari tarixining XIV-XV asrlari eng muhim tarixiy davrlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda Amir Temur (1336-1405) Temuriylar davlatiga asos soldi va u Markaziy Osiyodan Hindistongacha, Kavkazdan Kichik Osiyogacha bo'lgan hududlarda o'z hukmronligini o'rnatdi. Markaziy Osiyo tarixida o'chmas iz qoldirgan sohibqiron Amir Temur hayoti va harbiy siyosiy faoliyati haqida ko'plab tarixiy asarlar yozilgan. Shunday muhim manbalardan biri tarixnavis Ahmad ibn Muhammad ibn Arabshoh (1389-1450) qalamiga mansub "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" ya'ni ("Temur tarixida taqdirajoyibotlari") asaridir. Ibn Arabshohning ushbu asari Amir Temur haqidagi tanqidiy yo'nalishdagi tarixiy manbalarning eng muhimi va ahamiyatlisi hisoblanadi. Asarning o'ziga xos jihatni shundaki, muallif Amir Temurga nisbatan salbiy munosabatda bo'lib, uni asarida shafqatsiz, zolim va vayronkor hukmdor sifatida tasvirlaydi. Shuningdek, asar juda ko'p faktik ma'lumotlarga boy bo'lib, Amir Temur davri tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari Amir Temur davri tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri. Chunki asarda keltirilgan ma'lumotlarning katta qismi ushbu davrning boshqa manbalarida ham o'z tasdig'ini topgan. Misol uchun Amir Temurning harbiy yurishlari, janglar tavsifi, siyosiy

qarorlari, diplomatik munosabatlari haqidagi ma'lumotlarning ko'p qismi haqiqatga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, asarda bir necha noaniqliklar, mubolag'alar va subyektiv talqinlar ham ishlatilgan. Bu esa avvalo, Ibn Arabshohning Amir Temurga nisbatan salbiy munosabati bilan bog'liq. Muallif ko'p hollarda sohibqironning salbiy xatti-harakatlarini bo'rttirib ko'rsatadi va uning qilgan ishlarini ko'p hollarda salbiy tomonlariga urg'u beradi. Misol uchun u Amir Temurning Damashq va boshqa shaharlariga harbiy yurishlarini, aholini qirg'in qilishini juda dahshatli tasvirlaydi, ammo bu tasvirlar ko'p hollarda mubolag'ali ko'rindi. Ibn Arabshoh asarida xronologik xatoliklar ham uchraydi. Ba'zi voqealarning sanasi noto'g'ri ko'rsatilgan yoki voqealar ketma-ketligida chalkashliklar mavjud. Bu esa ehtimol, asarning sohibqiron vafotidan 30 yil o'tgach yozilganligi va muallif ba'zi ma'lumotlarni xotirasiga tayanib yozgani bilan bog'liq bo'lishi ehtimoldan holi emas. Asarning manba sifatidagi qimmati shundaki, unda boshqa manbalarda uchramaydigan ko'plab ma'lumotlar mavjud. Xususan, Ibn Arabshoh Amir Temur saroyidagi hayot, uning kundalik turmushi, shaxsiy fazilatlari va kamchiliklari, saroy a'yonlari va sarkardalari davlatning ma'muriy tuzilishi, harbiy tashkili, soliq tizimi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari ko'p vaqtlar mobaynida ko'plab sharqshunos olimlar va tarixchilar diqqatini o'ziga jalb qilgan. Asar avval

qo‘lyozma shaklida, keyinchalik matbaa usulida ko‘p nusxalarda tarqalgan. Asarning ilk ilmiy nashri XVII asrda Leyden shahrida arab tilida nashr etilgan. Keyingi davrlarda esa asar ko‘plab tillarga tarjima qilingan. XVIII asrga kelib asar fransuz tiliga S.Petis de la Crua tomonidan, XIX asrda esa nemis tiliga G.Veil tomonidan va Nazmizoda tomonidan turk tillariga tarjima qilingan. XX asrning boshiga kelib asar rus tiliga ham tarjima qilindi. X.D.Frenn asrni Ruscha tarjimasini amalga oshirdi. O‘zbek tilidagi tarjimasi esa 1990-yillarda Ubaydulla. Uvatov tomonidan amalga oshirildi. Asar ko‘plab sharqshunos olimlar va tarixchilar tomonidan o‘rganilganva tahil qilingan. Rossiyaning manbashunos olimlari V.V.Bartold, A.Yu.Yakubovskiy, I.P.Petrushevskiy kabi olimlar asarni chuqur tahlil qilganlar va ilmiy izlanishlar olib borishgan. O‘zbekistonda esa B.Ahmedov, A.Ahmedov, T.Fayziev, O. Bo‘riyev, B. Usmonov, Sh. O‘ljayeva kabi olimlar va olimalar asarni o‘rganishgan.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mashhur arab tarixchisi Ibn Arabshohning to‘liq ismi Shahobuddin Ahmad ibn Muhammad ibn Abdulloh ibn Ibrohim bo‘lib, u 791 xijriy yili zu-l-qa‘da oyining o‘rtasida milodiy 1389-yilning 5-noyabrida Damashq hozirgi Suriya shahrida tavallud topgan. Ibn Arabshoh asli damashqlik bo‘lganligi uchun unga ad Damashqiyy, deb nisbat berigan, ammo 1411-1421-yillar oralig‘ida tarixchi usmoniy turklar huzurida ya’ni Kichik Osiyoda hududida yashaganligi uchun ar-Rumiyy, hamda yoshlig yillaridan vatanidan ketib, ko‘p muddat xorijiy yurtlarda yashagani uchun unga al-Ajamiy deb ham nisbat berilgan va umrining ko‘p qismini sayohatlarda o‘tkazganligi uchun Ibn Arabshoh laqabini olganligi manbalarda qayd qilinadi. Ibn Arabshohning hayoti bevosita Amir Temur faoliyati bilan bog‘liq. 1400-1401-yillarda Amir Temurning Damashqqa tomon yurushlari davomida, Ibn Arabshoh oilasi bilan birga Samarqandga asir sifatida olib ketilgan. O‘sha vaqtarda u 11 yoshda edi Tarixchi Samarqandda 10 yildan ortiq vaqt davomida yashagan va u yerda yangi bilimlarini o‘zlashtirgan. Turkiy va forsiy tillarni o‘rgangan. 1409-yilda, Amir Temur vafotidan keyin, Ibn Arabshoh Samarqanddan ketib, Xorazm, Dashti Qipchoq orqali Qrimga, undan Turkiyaga o‘tgan. Bundan ko‘rinib turibdiki u

Samarqandda bo‘lgan yillarida asir bo‘lmagan hattoki u yerda bilim olgan. U Turkiyada bir qancha yillar yashagan, keyinchalik Misr va Suriyaga qaytgan. Tarixchi umrining oxirgi yillarini Qohira va Damashqda o‘tkazgan va 1450-yilda Qohirada vafot etgan. Ibn Arabshoh bir qancha asarlar muallifi bo‘lib, ularning orasida "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari eng mashhuri hisoblanadi. Bu asar 1436-1437-yillarda, ya’ni Amir Temur vafotidan so‘ng yozilgan. Ushbu asar arab tilida yozgan bo‘lib, unda tarixchi o‘zining Amir Temurga bo‘lgan salbiy munosabatini ochiq ifoda etgan. Shu bilan birga, Ibn Arabshoh ba‘zi o‘rnarda Amir Temurning ijobjiy fazilatlarini ham e’tirof etadi. Misol uchun u Amir Temurning jasorati, aql-zakovati, tashkilotchiligi, harbiy mahorati va qat’iyatini tan oladi. Ayniqsa, Amir Temurning ilmfan va san‘at vakillariga bo‘lgan hurmatini, saroydagi ilmiy muhitni alohida ta‘kidlaydi va tavsiflaydi. Ushbu asar Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" kabi asarlardan farq qiladi. Nizomiddin Shomi va Sharafiddin Ali Yazdiy Amir Temurni ulug‘lagan, uni ideal hukmdor sifatida tasvirlagan bo‘lsa, Ibn Arabshoh ko‘proq uning salbiy jihatlariga e’tibor qaratgan. Ibn Arabshoh asaridan Amir Temurni o‘rganishda tanqidiy yondashish manbasi sifatida foydalinish mumkin. Saroy tarixchilari Amir Temurni faqat ijobjiy jihatdan ko‘rsatishga intilgan bo‘lsalar, Ibn Arabshoh uning turli jihatlarini ochib berishga harakat qilgan. Asarda muallif o‘z ko‘rganlari, eshitganlari va boshqa manbalardan olgan ma’lumotlarni sintez qilgan. U tilning badiiy imkoniyatlardan unumli foydalangan, she’riy parchalar, hikmatli so‘zlar, maqollar, rivoyatlar keltirgan. Bu asar nafaqat tarixiy manba, balki badiiy jihatdan ham qimmatli asar hisoblanadi. Ibn Arbshoh asarda Amir Temur siyoshi quydagicha tasvirlaydi Amir Temur – Tarag‘ay o‘g‘li bo‘lib, bobosi Abag‘aydir. U Xo‘ja Ilg‘or nomli kishilar yashaydigan joyda tug‘ilgan. Uning tug‘ilgan sanasi haqida turli manbalarda xilma-xil ma’lumotlar mayjud. Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida: “Sha‘bon oyining yigirma beshida, 1336-yil 8-aprel kuni Kesh viloyatida tavallud topgan”, – deb yozadi. Ibn Arabshoh “Ajoib al-maqdur” asarida Temur tug‘ilgan kecha osmonda temir qalpoqchaga o‘xhash yorqin bir narsa paydo bo‘lib, u kenglikka tarqalib, butun yer yuzini qoplagani haqida rivoyat qiladi. Yana bir rivoyatda aytishicha, Temur

tug‘ilganida uning qo‘llari qon bilan bo‘yalgan bo‘lgan. Folbinlar bu holatni turlicha sharhlab, “shurta bo‘ladi”, “yo‘lto‘sar bo‘ladi”, “qonxo‘r bo‘ladi” va hatto “jallod bo‘ladi” degan fikrlarni bildirganlar. Arabshoh Temur va uning otasi oddiy cho‘ponlar bo‘lgan, diniy bilimdan yiroq va past tabaqadan chiqqan odamlardandir, deb da‘vo qiladi. Ammo bu kabi fikrlar haqiqatga yaqin emas chunki bu davrdagi boshqa manbalar Sharifiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarlarida bunday ma’lumot keltirilmagan.

## XULOSA

Ibn Arabshohning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari Amir Temur davri tarixshunosligida muhim o‘rin tutadi va bu davrni o‘rganishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Bu asar Amir Temurga nisbatan tanqidiy qarashni aks ettirishi bilan qimmatli bo‘lib, uning davri va faoliyati haqida ko‘proq muvozanatlari va xolis tarix yaratishga imkon beradi. Asar, shuningdek, o‘z davridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, xalqaro munosabatlar, madaniy hayot haqida ham qimmatli ma’lumotlar beradi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur: Temur tarixida taqdir ajoyibotlari. / So‘z boshi, arab tilidan tarjima va

izohlarni U. Uvatov tayyorlagan. 1-kitob. - T.:Mehnat, 1992. -B. 17.

2. B.A.Usmonov “Amir Temur va temuriylar davri siyosiy tarixi”. Farg‘ona 2024, b. 17.

3. Ahmedov B. Ibn Arabshoh va uning "Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur" asari // O‘zbekiston tarixi, 2002, №3. – B. 45-52.

4. Бартольд В.В. Работы по историографии и источникам Средней Азии // Т. 8. – М.: Наука., 1973. – С. 256-268

5. Якубовский А.Ю. Темур: опыт политической оценки // Вопросы истории, 1946, №8-9. – С. 42-74

6. Muhammadjanov A. Ibn Arabshoh va uning Amir Temur haqidagi asari // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1998, №4. – B. 63-72

7. Uvatov U. Arabshunos olimlar va adiblarning Temur va temuriylar davri haqidagi asarlari. – Toshkent: Fan, 1997. – B. 45-67

8. Бегимкулова Л.М. XV аср бошларида Мовароуннарда ҳокимият учун кураш (кучлар нисбати ва натижалар таҳлили). Монография – Фарғона. 2021

9. Gibbs H.A. The Life of Ibn Arabshah // Journal of the Royal Asiatic Society. – London, 1934. – Vol. 66. – P. 245-256.

10. Ртвеладзе Э., Сайдов А. История Амира Темура и Мировой. - Ташкент: Восток, 2001. – С. 34-46.